

Qurilish vazirligining 2019 yil 16 oktabrdagi 7856/09-07–sonli xati bilan Adliya vazirligiga shaharsozlikni tartibga soluvchi 21 ta normativ-texnik hujjatlar (ShNK) korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilib, 2019 yil 27 noyabrda 6-15/4-6/17039-sonli xat bilan 21 ta ShNKga xulosa olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 martdagi PF-5963-sonli Farmoniga binoan, Qurilish vazirligi qoshida “Qurilishda texnik me'yorlash Markazi” tashkil etildi va ushbu Markazga barcha normativ hujjatlarni qayta ishlash, xorijiy davlatlar standartlari bilan milliy normalarni uyg'unlashtirish vazifasi yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2020 yil 14 maydagi 138-sonli buyrug'i bilan 2020-2023 yillarda shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solishga doir milliy normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish dasturi tasdiqlandi.

Sohada korrupsiyani oldini olishda kadrlar masalasi o'ta muhimligini inobatga olib, bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ishga qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida, **qadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish, suhbat jarayonlarini onlayn rejimda kuzatib borish amaliyotini yo'lga qo'yildi.**

Ma'lumki, korrupsiyani oldini olishda eng ta'sirchan mexanizmlardan biri **bu sohani raqamlashtirish orqali inson omilini cheklashdir.** Shundan kelib chiqqan holda qurilish sohasiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bugungi kundagi islohotlarimizning eng muhim yo'nalishiga aylangan.

Shuningdek, hozirda kapital qurilish sohasiga oid **20 ga yaqin** normativ-huquqiy hamda **400 ga yaqin** shaharsozlik normalari va qoidalarini (ShNK) inventarizasiya qilish va ularda korrupsiyaga oid holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash maqsadida tegishli tartibda ekspertizadan o'tkazilmoqda.